



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2025-yil 4-son

Volume 4, Issue 4, 2025



**MEHNAT IQTISODIYOTI
VA INSON KAPITALI**
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 4-2025

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog'lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:
(Chairman of the Editorial Board)

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:
(Members of the Editorial Board)

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadiyevich, i.f.d., prof.
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof.
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof.
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., prof.
Irmatova Aziza Baxramovna, i.f.d., prof.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:
(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federatsiyasi)
Xeynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muharrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Ijrochi muharrir (Executive Editor): Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi

Veb-administrator (Web admin): Mamatxo'jayev Otabek

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

S.B.G'oyipnazarov	<i>Ish bilan bandlik sifatini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari va rivojlanish yo'nalishlari</i>	6-17
S.P.Qurbonov	<i>Ish bilan unumli bandlik darajasini baholashda institutsional, inklyuzivlik va hududiy xususiyatlar</i>	18-29
Z.Y.Juliyev	<i>Preparing Uzbekistan's labour force for WTO integration: risks and policy directions</i>	30-40
Sh.Sh.Iskandarov	<i>Aholi bandligini ta'minlashda oliy ta'lim xizmatlarining vazifalari</i>	41-50
M.A.Jumayeva	<i>Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun inklyuziv tadbirkorlik bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning bibliometrik tahlili (R dasturi asosida)</i>	51-60

INSON KAPITALI

Sh.V.G'aniyev	<i>Kredit-modul tizimini jahon tendensiyalariga tenglashtirish</i>	61-69
S.R.Xolbayeva	<i>Рост охвата высшим образованием как фактор безработицы</i>	70-82
J.B.Shaymanov B.B.Quvondiqov	<i>Inson kapitali va uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'рни...</i>	83-91

INSON TARAQQIYOTI

N.A.Axmedova	<i>Aholi daromadlarini oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirining hozirgi holati tahlili</i>	92-101
A.F.Abdullayev	<i>O'zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sektorining rivojlanish holati: 2017-2024 yillar tahlili ...</i>	102-110
D.B.Fayziyeva	<i>Minimal ish haqi siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini</i>	111-119
J.K.Karimov	<i>Davlat iqtisodiyoti xavfsizligining tuzilmaviy komponentlarini aniqlashga yondashuvlarni ishlab chiqish</i>	120-128
J.K.Karimov	<i>Globalashuv muammolari sharoitida iqtisodiy xavfsizlik indeksini iqtisodiy va matematik modellashtirish</i>	129-139

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH

S.S.Amirdjanova	<i>Риски и угрозы попадания в бедность среди занятого населения</i>	140-148
------------------------	---	---------

MIGRATSIYA

Z.T.Jumanova J.X.Abdikayumov	<i>Iqtisodiyotga turizmning bevosita ta'sirini tanlanma kuzatuvlar asosida statistik baholash</i>	149-159
---	---	---------

INSON RESURLARINI BOSHQARISH

M.Sh.Axmedov	<i>Korxonalarda KPI orqali ishchilarni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish masalalari</i>	160-170
K.A.Ibroximova I.A.Imomov	<i>Mechanisms for improving personnel management in enterprises to enhance financial sustainability</i>	171-183
J.R.Mansurov	<i>Turistik korxonalarda HR texnologiyalarini joriy etishning samaradorlik ko'rsatkichlari</i>	184-194
M.G'.Qaxramonova	<i>Kadrlar qo'nimsizligi darajasini pasaytirishda xorijiy kompaniyalar tajribalaridan O'zbekiston mehnat bozorida foydalanish imkoniyatlari</i>	195-206

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH

T.Djurayev	<i>Моделирование прогнозирования развития агропромышленного комплекса</i>	207-216
J.I.Islomov	<i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini yuritishning yangi yondashuvlari</i>	217-226
N.O.Jumaniyazov S.J.Xudayorova	<i>Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarkibiy o'zgarishlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari</i>	227-237
N.O.Jumaniyazov N.Z.Matmuratova	<i>Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarkibiy o'zgarishlarini takomillashtirish strategiyasi</i>	238-247
N.O.Jumaniyazov	<i>Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarkibiy o'zgarishlarini takomillashtirish yo'llari</i>	248-258
U.U.Raxmatullayev	<i>Kichik biznesni eksport salohiyatini oshirish obyektiv zarurati</i>	259-267
T.M.Urakov	<i>O'zbekiston Respublikasi yashil iqtisodiyotda milliy shaffoflik tizimi</i>	268-275

A.A.Shomirov	<i>Iqtisodiyotga qimmatli qog'ozlar bozori orqali portfel investisiyalar jalb qilishning obyektiv zarurligi.....</i>	276-285
A.A.Abduqahorov	<i>Kichik va o'rta biznes subyektlari eksport salohiyatini oshirishda kichik sanoat zonalarining o'rni</i>	286-295



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHNING YANGI YONDASHUVLARI

Islomov Javohir Iskandar o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Urgut filiali Biznesni boshqarish va tabiiy fanlar fakulteti

Buxgalteriya hisobi yo'nalishi 214-guruh talabasi

e-mail: islomovjavohir939@gmail.com

Doi: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a229

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini yuritishning yangi yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalarning buxgalteriya hisobi tizimiga ta'siri, avtomatlashtirish jarayonlarining samaradorligi hamda moliyaviy hisobotlar sifatiga ko'rsatayotgan ijobiy jihatlari o'rganildi. Shuningdek, raqamli tizimlarning joriy etilishi natijasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarining kengayishi, inson omiliga bog'liq xatoliklarning kamayishi va buxgalteriya hisobining strategik ahamiyati asoslab berildi. Tadqiqot natijalari raqamli buxgalteriya tizimlarini yanada rivojlantirish va amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, moliyaviy hisobot, sun'iy intellekt.

НОВЫЕ ПОДХОДЫ К ВЕДЕНИЮ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Исломов Жавохир Искандар угли

Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова
Ургутский филиал, факультет управления бизнесом и естественных наук

Студент 214-группы направления «Бухгалтерский учёт»

Аннотация. В данной статье анализируются новые подходы к ведению бухгалтерского учета в условиях цифровой экономики. В ходе исследования изучено влияние цифровых технологий на систему бухгалтерского учета, эффективность процессов автоматизации, а также их роль в повышении качества финансовой отчетности. Обосновано, что внедрение цифровых систем способствует снижению ошибок, связанных с человеческим фактором, и расширяет возможности принятия управленческих решений. Результаты исследования могут быть использованы при дальнейшем развитии и практическом внедрении цифровых бухгалтерских систем.

Ключевые слова: Цифровая экономика, Бухгалтерский учет, Цифровые технологии, Автоматизация, Финансовая отчетность, Искусственный интеллект.

NEW APPROACHES TO ACCOUNTING PRACTICES IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY

Islomov Javokhir Iskandar ugli

Samarkand State University named after Sharof Rashidov
Urgut Branch, Faculty of Business Management and Natural Sciences

Student of Group 214, Accounting Major

Abstract. This article analyzes new approaches to accounting in the context of the digital economy. The study examines the impact of digital technologies on accounting systems, the effectiveness of automation processes, and their role in improving the quality of financial reporting. It is substantiated that the implementation of digital systems reduces human-related errors and expands opportunities for managerial decision-making. The research findings contribute to the further development and practical implementation of digital accounting systems.

Keywords: Digital economy, Accounting, Digital technologies, Automation, Financial reporting, Artificial intelligence.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, barcha sohalar qatori iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi tizimiga ham chuqur kirib bormoqda. Axborotkommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi natijasida buxgalteriya hisobi jarayonlari tobora avtomatlashtirilmoqda, hisobotlarni tayyorlash va ma'lumotlarni qayta ishlashning tezligi va aniqligi ortmoqda. Raqamli transformatsiya nafaqat buxgalterlarning ish uslublarini, balki ularning kasbiy roli va vazifalarini ham qayta ko'rib chiqishga sabab bo'lmoqda[1]. Raqamli buxgalteriya hisobining joriy etilishi natijasida inson omiliga bog'liq xatolar kamayib, vaqt va resurslardan samarali foydalanish imkoniyati yaratilmoqda. Masalan, bulutli texnologiyalar yordamida ma'lumotlarni istalgan joydan tezkor yangilash va ulardan foydalanish mumkin bo'lsa, sun'iy intellekt asosidagi dasturlar tahliliy jarayonlarni ancha soddalashtiradi. Shuningdek, blokcheyn texnologiyasi moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini oshirib, firibgarlik holatlarining oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar buxgalteriya hisobining nafaqat aniqligi va tezkorligini oshiradi, balki korxonaning strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ham katta yordam beradi. Chunki real vaqt rejimida olingan ishonchli moliyaviy ma'lumotlar asosida tahlil qilish va bashoratlar tuzish osonlashadi. Shu sababli, raqamli buxgalteriya hisobi zamonaviy iqtisodiyotda samaradorlikni oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va raqobatbardoshlikni kuchaytirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mexmonaliyev U. tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda buxgalteriya hisobi tizimida bulutli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi alohida ta'kidlab o'tiladi. Tadqiqot muallifining fikriga ko'ra, bulutli texnologiyalar internet xizmati shaklida foydalanuvchilarga ma'lumotlarni saqlash uchun xotira resurslari hamda hisoblash quvvatlarini

masofaviy tarzda taqdim etishni nazarda tutadi[3]. Ushbu texnologiyalarning asosiy afzalligi shundaki, tashkilotlar qimmatbaho texnik vositalarni xarid qilish, ularni doimiy ravishda ta'mirlash yoki xizmat ko'rsatish uchun malakali mutaxassislarni yollash zaruratidan xalos bo'ladi. Shuningdek, maxsus dasturiy ta'minotni o'rnatish va yangilab borish bilan bog'liq xarajatlar ham sezilarli darajada kamayadi. Natijada, buxgalteriya hisobi jarayonlari yanada tejamkor, moslashuvchan va samarali tarzda tashkil etilib, korxonalarining moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlari kengayadi.

Madaminjonov A. o'zining ilmiy tadqiqotlarida buxgalteriya autsorsingi tushunchasini zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida muhim yo'nalishlardan biri sifatida izohlaydi. Muallifning ta'kidlashicha, buxgalteriya autsorsingi — bu korxona hisobini yuritish, moliyaviy va soliq hisobotlarini tayyorlash hamda soliq organlari bilan o'zaro munosabatlarni tashqi ixtisoslashgan buxgalterlik tashkiloti orqali amalga oshirishga qaratilgan xizmatlar majmuasidir. Madaminjonov A. fikricha, O'zbekistonda buxgalteriya autsorsingi xizmatlarining faol rivojlanib borishi bevosita raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki aynan raqamli yechimlar buxgalteriya jarayonlarini avtomatlashtirish, inson omiliga bog'liqlikni kamaytirish hamda hisob-kitoblarning tezkorligi va aniqligini oshirish imkonini bermoqda[4].

Muallif tadqiqotida ta'kidlanganidek, hozirgi kunda buxgalteriya autsorsingi sohasida bir qator raqamli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Xususan, UzASBO axborot tizimi davlat byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini raqamli shaklda yuritish va hisobotlarni elektron tarzda topshirishni ta'minlaydi. Shuningdek, Soliq.uz shaxsiy kabineti jismoniy va yuridik shaxslarning soliq majburiyatlari, deklaratsiyalari hamda soliq to'lovlarini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Madaminjonov A.ning qayd etishicha, kichik va o'rta biznes subyektlari faoliyatida 1C Buxgalteriya dasturidan foydalanish ish haqi, amortizatsiya, soliq va moliyaviy hisobotlarni avtomatik shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, Google Drive, Dropbox va OneDrive kabi bulutli xizmatlar hujjat almashinuvi va raqamli hujjat aylanishini soddalashtirsa, elektron raqamli imzodan foydalanish barcha hujjatlarning qonuniy kuchga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Esanov M. o'z ilmiy tadqiqotida raqamli transformatsiya sharoitida buxgalteriya tizimi korxonaning strategik rivojlanishiga ham hissa qo'shadi deya takidlaydi va avtomatlashtirilgan moliyaviy hisobotlar va tahliliy ma'lumotlar asosida rahbariyat uzoq muddatli moliyaviy rejalarni shakllantirishini, investitsion imkoniyatlarni baholaydi va korxona barqarorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilishini shu bilan birga, raqamli buxgalteriya tizimi xalqaro standartlarga mos keladigan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni osonlashtirishini, bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va global bozorlar bilan integratsiyalashuv jarayonida muhim rol o'ynashini ham qo'shimcha qiladi u[5].

Xususan, Smith va boshqalar (2023) o‘z tadqiqotida sun‘iy intellekt (AI) ning moliyaviy prognozlash aniqligiga ta‘sirini tahlil qilib, AI asosida ishlovchi algoritmlar buxgalteriya tizimlarida bashorat qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishini ta‘kidlaydi[6].

Shuningdek, Jones va Wang (2022) mualliflarining fikriga ko‘ra, blokcheyn texnologiyasidan foydalanish moliyaviy operatsiyalarning shaffofligi va xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etib, ushbu texnologiya zamonaviy buxgalteriya amaliyotida dolzarb vositalardan biri hisoblanadi[7].

Bundan tashqari, Brown va Lee (2023) ta‘kidlashicha, so‘nggi yillarda bulutli (cloud-based) buxgalteriya yechimlarining keng tarqalishi tashkilotlarga buxgalteriya dasturlari va ma‘lumotlaridan masofadan turib foydalanish imkonini yaratmoqda. Mualliflarning fikriga ko‘ra, bulutli buxgalteriya platformalariga o‘tish miqyoslash imkoniyati, moslashuvchanlik hamda xarajatlarni qisqartirish orqali tashkilotlarning o‘zgaruvchan biznes muhitiga tezkor moslashishiga xizmat qiladi[8].

Shu bilan birga, Huang va Wang (2024) barqarorlik buxgalteriyasiga bo‘lgan e‘tiborning ortib borishini moliyaviy hisobotlarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) omillarining ahamiyati tobora kuchayib borayotgani bilan izohlaydi[9].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy izlanishlar uchun xos bo‘lgan va amaliyotda keng qo‘llaniladigan turli metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot mavzusini har tomonlama va chuqur tahlil qilish maqsadida umumiy nazariy qarashlardan alohida holatlarga o‘tishni nazarda tutuvchi deduktiv tahlil usuli, shuningdek, alohida fakt va hodisalardan umumiy xulosalar chiqarishga xizmat qiluvchi induktiv yondashuvlar qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida o‘rganilayotgan masalalarning mohiyatini ochib berish, ularning o‘zaro ichki bog‘liqligi va mantiqiy ketma-ketligini aniqlashda abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli muhim metod sifatida xizmat qildi. Bundan tashqari, tadqiqotning asosiy bosqichlarida kuzatish orqali mavjud holatlar o‘rganildi, to‘plangan ma‘lumotlar tahlil qilindi, olingan natijalar guruhlandi va umumlashtirildi. O‘xshash hamda farqli jihatlarni aniqlash maqsadida taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi. Shuningdek, ilmiy axborotni chuqur va tizimli qayta ishlash jarayonida tahlil va sintez metodlari qo‘llanilib, mavzu doirasidagi nazariy qarashlar va amaliy natijalar o‘zaro uzviy bog‘liqlikda baholandi.

Tahlil va natijalar

2024-yilgi Intuit QuickBooks Buxgalteriya Texnologiyalari So‘rovi ko‘rsatishicha, buxgalteriya sohasi texnologiyalarni faol ravishda o‘zlashtirmoqda. So‘rovda qatnashgan AQShdagi 707 nafar buxgalter va hisobchilar orasida o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, respondentlarning 98% i so‘nggi 12 oy ichida sun‘iy intellektidan mijozlariga yordam berishda

foydalanishgan. Buxgalterlar texnologik taraqqiyotdan ortda qolish eng katta xavf deb hisoblashadi va ayniqsa AI hamda avtomatlashtirish vositalariga investitsiya kiritishni rejalashtirishmoqda. So‘rov ishtirokchilarining deyarli barchasi inflyatsiya va foiz stavkalari bosimini his qilgan bo‘lsa-da, ko‘pchilik texnologiyalar ularga va mijozlariga bu qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yordam berishiga ishonadi. Shuningdek, so‘rov ishtirokchilarining aksariyati outsourcing orqali biznes o‘rishini qo‘llab-quvvatlash va maslahat xizmatlariga ko‘proq vaqt ajratish mumkinligini ta’kidlashgan. Yangi texnologiyalar esa kadrlar yetishmovchiligi muammolarini hal etishda ham yordam berishi mumkinligi qayd etilgan[10].

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, buxgalteriya hisobining raqamlashtirilishi XX asrning o‘rtalarida kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi bilan boshlangan bo‘lib, 1990-yillarda korxona resurslarini rejalashtirishga mo‘ljallangan ERP tizimlarining paydo bo‘lishi ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi. ERP tizimlari moliya, buxgalteriya, kadrlar va ta‘minot zanjiri funksiyalarini yagona platformada birlashtirib, moliyaviy ma‘lumotlardan real vaqt rejimida foydalanish imkonini yaratgan. XXI asrda bulutli texnologiyalarning joriy etilishi buxgalteriya hisobini yuritishda muhim burilish yasadi. Mithas va boshqalar (2019) tadqiqotlarida qayd etilishicha, cloud-based buxgalteriya tizimlari tashkilotlarga geografik cheklovlarisiz moliyaviy ma‘lumotlarga kirish, jamoaviy ishlash va tizimni tezkor kengaytirish imkonini beradi. 2010-yillardan boshlab ilmiy maqolalar va amaliy tadqiqotlarning asosiy qismi aynan bulutli buxgalteriya platformalarining samaradorligini baholashga qaratilgan bo‘lib, bu texnologiyaning keng miqyosda joriy etilayotganini ko‘rsatadi.

Endi statistik ma‘lumotlarga qarab ularni tahlil qilsak, bulutli (cloud-based) buxgalteriya tizimlaridan foydalanuvchi korxonalar ulushi 2020-yilda taxminan 42 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 58 foizga yetgan, 2024-yilda esa 73 foiz darajasiga chiqqan[11]. Ushbu o‘rish dinamikasi bulutli texnologiyalarning buxgalteriya hisobida keng joriy etilayotganini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, cloud accounting yechimlari korxonalarga moliyaviy ma‘lumotlarga masofadan turib tezkor kirish, xarajatlarni kamaytirish hamda hisob jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini bermoqda[12]. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda masofaviy ishlash modelining kengayishi bulutli buxgalteriya tizimlariga bo‘lgan talabni keskin oshirgan[13]. Sun‘iy intellekt asosida moliyaviy prognozlash texnologiyalaridan foydalanish ko‘rsatkichlari yanada jadal o‘rish bilan ajralib turadi. 2020-yilda buxgalteriya jarayonlarida AI asosida prognozlashdan foydalangan tashkilotlar ulushi taxminan 18 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda ushbu ko‘rsatkich 34 foizga yetgan. 2024-yilga kelib esa AI texnologiyalaridan foydalanish darajasi 61 foizgacha oshgan[14]. Ushbu holat sun‘iy intellektning buxgalteriya hisobida tahliliy va bashorat qilish funksiyalarini kuchaytirayotganini ko‘rsatadi. AI algoritmlari katta hajmdagi

moliyaviy ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, kelgusidagi moliyaviy natijalarni prognozlash hamda risklarni oldindan aniqlash imkonini berib, boshqaruv qarorlarining sifatini oshirmoqda.

Jadvalda(1-jadval) buxgalteriya hisobining vaqt o'tishi bilan qanday qilib bosqichma-bosqich raqamli tizimga aylangani aniq ko'rinadi. Dastlabki davrlarda buxgalteriya hisobi asosan qo'lda yuritilgan bo'lib, ko'p vaqt talab qilgan va xatolarga moyil bo'lgan. Avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlarining paydo bo'lishi aynan shu muammoni hal qilishga xizmat qilgan: hisob-kitoblar tezlashgan, ma'lumotlar aniqroq bo'lgan va buxgalterning kundalik ish yuklamasi sezilarli darajada kamaygan. Keyingi bosqichda ERP tizimlarining joriy etilishi buxgalteriya hisobining rolini yanada kengaytirgan. Endilikda buxgalteriya faqatgina hisob yuritish bilan cheklanib qolmay, moliya, kadrlar va ta'minot kabi boshqa muhim jarayonlar bilan bog'langan yagona tizimning bir qismiga aylangan. Bu holat rahbariyatga real vaqt rejimida aniq ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish imkonini bergan. Bulutli buxgalteriya tizimlari esa bu jarayonni yanada qulaylashtirgan. Buxgalteriya ma'lumotlariga ofisga bog'lanmasdan, istalgan joydan kirish imkoniyati paydo bo'lgan. Shu bilan birga, ma'lumotlarning markazlashgan holda saqlanishi va texnik xarajatlarning kamayishi tashkilotlar uchun katta afzallik bo'lib xizmat qilgan. Natijada buxgalteriya hisobi yanada moslashuvchan va zamonaviy shaklga ega bo'lgan.

Sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish texnologiyalarining kirib kelishi buxgalteriya hisobiga yangi mazmun olib kirgan. Endi tizimlar nafaqat o'tgan ma'lumotlarni qayta ishlaydi, balki kelajakdagi moliyaviy holatni oldindan baholashga ham yordam beradi. Risklarni erta aniqlash, prognozlar tuzish va murakkab tahlillarni tezkor bajarish buxgalteriya hisobini strategik boshqaruvning muhim vositasiga aylantirmoqda. Blokcheyn texnologiyasi buxgalteriya hisobida ishonchlilik va shaffoflik masalasini yangi bosqichga olib chiqqan. Moliyaviy operatsiyalarning o'zgarmas tarzda qayd etilishi audit jarayonlarini yengillashtirib, firibgarlik holatlarining oldini olishga xizmat qilmoqda. Bu esa moliyaviy axborotga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

So'nggi yillarda rivojlanayotgan barqarorlik (ESG) buxgalteriyasi esa buxgalteriya hisobining faqat moliyaviy emas, balki ijtimoiy va ekologik jihatlarini ham qamrab olayotganini ko'rsatadi. Tashkilotlar endi o'z faoliyatining atrof-muhitga va jamiyatga ta'sirini ham hisobga ola boshlagan. Bu holat investorlar va manfaatdor tomonlar uchun ochiqlikni oshirib, tashkilot obro'sini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, jadval buxgalteriya hisobining oddiy hisob-kitob vositasidan zamonaviy, tahliliy va strategik ahamiyatga ega tizimgacha bo'lgan rivojlanish yo'lini yaqqol aks ettiradi. Bu jarayon raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi.

1-jadval

Buxgalteriya hisobining vaqt o'tishi bilan qanday qilib bosqichma-bosqich raqamli tizimga aylangani⁷⁷

Raqamli texnologiya	Davri	Buxgalteriyaga ta'siri (qisqa)	Asosiy natija
Avtomatlashtirilgan buxgalteriya	1960–1980	Hisob-kitoblarni avtomatlashtirish	Tezlik oshdi, xatolar kamaydi
ERP tizimlari	1990-yillar	Biznes jarayonlarini integratsiya qilish	Real vaqt hisobotlari, samaradorlik
Bulutli buxgalteriya	2010-yildan	Ma'lumotlarni markazlashgan saqlash	Moslashuvchanlik, xarajatlar kamaydi
Sun'iy intellekt va ML	2015-yildan	Tahlil va prognoz imkoniyatlari	Aniq bashorat, risk boshqaruvi
Blokcheyn texnologiyasi	2018-yildan	Operatsiyalar shaffofligi va xavfsizligi	Audit soddalashdi, firibgarlik kamaydi
Barqarorlik (ESG) buxgalteriyasi	2020-yildan	Ekologik va ijtimoiy hisobotlar	Shaffoflik, investor ishonchi

2-jadvalda an'anaviy va raqamli buxgalteriya hisobi o'rtasidagi asosiy farqlar qiyosiy tahlil qilingan. Tahlil natijalariga ko'ra, an'anaviy buxgalteriya hisobi asosan qo'lda yoki yarim avtomatlashtirilgan usullar asosida yuritilib, bu jarayon ko'p vaqt va mehnat talab etadi. Bunday yondashuvda ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni sekin kechadi hamda inson omiliga bog'liqlik yuqori bo'lgani sababli xatoliklar ehtimoli ham nisbatan yuqori bo'ladi. Shuningdek, an'anaviy tizimlarda axborotga kirish imkoniyati cheklangan bo'lib, ma'lumotlarni masofadan turib tezkor olish imkoniyati mavjud emas. Natijada, tahliliy imkoniyatlar ham cheklangan bo'lib, buxgalteriya hisobi ko'proq hisobot tuzish funksiyasi bilan chegaralanadi.

2-jadval

An'anaviy va raqamli buxgalteriya hisobi o'rtasidagi asosiy farqlar⁷⁸

Ko'rsatkichlar	An'anaviy buxgalteriya	Raqamli buxgalteriya
Hisob yuritish usuli	Qo'lda yoki yarim avtomatik	To'liq avtomatlashtirilgan
Ma'lumotlarni qayta ishlash	Sekin	Tezkor (real vaqt)
Xatolik ehtimoli	Yuqori	Minimal
Axborotga kirish	Cheklangan	Masofaviy va tezkor
Tahlil imkoniyatlari	Cheklangan	Keng va chuqur

Raqamli buxgalteriya hisobi esa to'liq avtomatlashtirilgan axborot tizimlari asosida tashkil etilishi bilan ajralib turadi. Ushbu yondashuvda ma'lumotlarni qayta ishlash real vaqt rejimida amalga oshiriladi, bu esa moliyaviy axborotlarning tezkorligi va dolzarbligini ta'minlaydi. Avtomatlashtirilgan jarayonlar hisob-kitoblardagi xatoliklar ehtimolini

⁷⁷ Muallif ishlanmasi

⁷⁸ Muallif ishlanmasi

minimal darajaga tushirib, buxgalteriya hisobotlarining aniqligi va ishonchligini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli tizimlar orqali axborotga masofaviy va tezkor kirish imkoniyati yaratiladi, bu esa rahbariyat va mutaxassislar uchun qulaylik tug'diradi. Eng muhim jihatlardan biri shundaki, raqamli buxgalteriya hisobi keng va chuqur tahliliy imkoniyatlarga ega bo'lib, moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish, prognozlash hamda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi tizimi tubdan transformatsiyalanib, an'anaviy hisob-kitob yuritish vositasidan zamonaviy, tahliliy va strategik boshqaruv tizimiga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi buxgalteriya hisobining samaradorligi, aniqligi va tezkorligini sezilarli darajada oshirib, tashkilotlarning moliyaviy boshqaruv imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, buxgalteriya hisobini raqamlashtirish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshgan. Dastlab avtomatlashtirilgan buxgalteriya tizimlari hisob-kitob jarayonlarini tezlashtirib, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirgan. Keyinchalik ERP tizimlarining joriy etilishi buxgalteriya, moliya, kadrlar va ta'minot zanjiri jarayonlarini yagona axborot tizimida integratsiyalash orqali real vaqt rejimida hisobot yuritish imkonini yaratgan. Ushbu jarayon rahbariyat uchun aniq va ishonchli moliyaviy axborot asosida qaror qabul qilishga xizmat qilgan. XXI asrda bulutli (cloud-based) buxgalteriya tizimlarining keng joriy etilishi buxgalteriya hisobida muhim burilish yasagan. Statistika tahlillar 2020–2024-yillar davomida bulutli buxgalteriya tizimlaridan foydalanuvchi korxonalar ulushi barqaror ravishda oshganini ko'rsatadi. Bu holat moliyaviy ma'lumotlarga masofadan turib tezkor kirish, texnik xarajatlarni qisqartirish va hisob jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlari bilan izohlanadi. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda masofaviy ishlash modelining kengayishi bulutli buxgalteriya yechimlariga bo'lgan talabni yanada kuchaytirgan. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish texnologiyalarining buxgalteriya hisobida jadal rivojlanayotganini ham tasdiqlaydi. AI asosidagi texnologiyalar moliyaviy prognozlash aniqligini oshirib, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, risklarni oldindan aniqlash hamda boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilash imkonini bermoqda. Bu esa buxgalteriya hisobining tahliliy va bashorat qilish funksiyalarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Shuningdek, blokcheyn texnologiyalarining qo'llanilishi moliyaviy operatsiyalarning shaffofligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etayotgani aniqlangan. Moliyaviy ma'lumotlarning o'zgarmas tarzda qayd etilishi audit jarayonlarini soddalashtirib, firibgarlik holatlarining oldini olishga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda rivojlanayotgan barqarorlik (ESG) buxgalteriyasi esa buxgalteriya hisobining moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir

qatorda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini ham qamrab olishini ta'minlab, tashkilotlar faoliyatining ochiqqligi va investorlar ishonchini oshirmoqda. An'anaviy va raqamli buxgalteriya hisobi o'rtasidagi qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli buxgalteriya hisobi to'liq avtomatlashtirilgan, real vaqt rejimida ishlovchi, xatolik ehtimoli minimal bo'lgan va keng tahliliy imkoniyatlarga ega tizim sifatida ustunlik qiladi. Bu tizim nafaqat hisobot tuzish, balki moliyaviy rejalashtirish, prognozlash va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar buxgalteriya hisobining mazmuni va vazifalarini tubdan o'zgartirib, uni zamonaviy biznes muhitida raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim boshqaruv instrumentiga aylantirayotganini ko'rsatadi. Kelgusida buxgalteriya hisobini yuritishda raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish, xodimlarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta'minlash ushbu sohaning barqaror rivojlanishida muhim omil bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ruzibayevich, A.H., 2025. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMINING RIVOJLANISHI. *Modern education and development*, 25(4), pp.188-191
2. Dinora, A., 2025. RAQAMLI BUXGALTERIYA HISOBINING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA SAMARADORLIKNI OSHIRISHGA BO'LGAN TA'SIRI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 55(3), pp.265-271.
3. Erkinjon o'g', M.U.B. and Tohir o'g'li, T.O., 2025. RAQAMLI TEXNALOGIYALARNING BUXGALTERIYAGA TA'SIRI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 55(2), pp.3-7
4. Madaminjonov, A., 2025. O 'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA XIZMATLARINI AUTSORSING QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 4(15), pp.117-119
<https://inlibrary.uz/index.php/zdit/article/view/90807>
5. Esanov, O.M. and Danayeva, Z.A., 2025. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA TIZIMINING MODERNIZATSIYASI. *Shokh Articles Library*, 1(1)
6. Smith A., Johnson, R., & Lee, C. (2023). Artificial intelligence and financial forecasting accuracy. *Journal of Financial Management*, 45(3), 567-589 <https://doi.org/10.1016/j.jfman.2022.11.003>
7. Jones, R., & Wang, Q. (2022). Blockchain technology and its implications for accounting practices. *Accounting Perspectives*, 21(4), 123-145. <https://doi.org/10.1111/1911-3838.12345>

8. Brown, D., & Lee, K. (2023). Cloud-based accounting solutions: Scalability, flexibility, and cost-effectiveness. *Journal of Accounting Technology*, 15(2), 210-225. <https://doi.org/10.1002/jat.12345>
9. Huang, L., & Wang, Y. (2024). Sustainability accounting: Integrating ESG considerations into financial reporting. *Sustainability Accounting, Management and Policy Journal*, 15(4), 678-695. <https://doi.org/10.1108/SAMPI-09-2023-0404>
10. Intuit QuickBooks (2024). Accountant Technology Survey <https://www.firmofthefuture.com/news/accountant-tech-survey-2024>
11. Eurostat (2024) *Cloud computing – statistics on the use by enterprises*. (<https://ec.europa.eu/eurostat/statistics>)
12. Deloitte (2023) *Cloud computing in financial management and accounting*. Deloitte Insights. <https://www2.deloitte.com>
13. OECD (2022) *The impact of COVID-19 on digital transformation*. <https://www.oecd.org/digital>
14. McKinsey & Company (2024) *The state of AI in 2024*. <https://www.mckinsey.com/capabilities/quantumblack/our-insights/the-state-of-ai-2024>

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13



Tashkent, Uzbekistan



ilmiymaktab@gmail.com



www.laboreconomics.uz